

01-29835-son

29 noyabr 2024 yil.



“TASDIQLAYMAN”

Odam savdosiga qarshi kurashish

va munosib mehnat masalalari

bo'yicha tuman komissiyasi rais o'rinbosari

Sh.Vafoyev

Tuman hokimligida o'tkazilgan yig'ilish

BAYONI

29.11.2024 yil

Nurota tumani

Raislik qiluvchi:

Sh.Vafoyev-tuman hokimi o'rinbosari

Ishtirok etganlar:

tuman hokim o'rinbosarlari, korxona va
tashkilot rahbarlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiyasining 2024-yil 11-noyabrdagi “AQSH Mehnat vazirligi tomonidan taqdim etilgan “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risida”gi yillik hisobotda keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi to'g'risida”gi 3-sonli yig'ilish bayoni ijrosi to'g'risida.

(Sh.Vafoyev, B.Bobonazarov, G.Bobomurodova, A.Rayxanov, Sh.Vafoyev)

Yig'ilish kun tartibidagi masala yuzasidan Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha tuman komissiyasi rais o'rinbosari Sh.Vafoyev so'zga chiqib, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiyasining 2024-yil 11-noyabrdagi “AQSH Mehnat vazirligi tomonidan taqdim etilgan “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari

to'g'risida"gi yillik hisobotda keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi to'g'risida"gi 3-sonli yig'ilish bayoni bilan tanishtirdi.

Yig'ilish bayonida ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda berilgan topshiriqlarni zudlik bilan bajarish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr va mulohazalarni inobatga olib, yig'ilish,

QAROR QILADI:

1. Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiyasining 2024-yil 11-noyabrdagi "AQSH Mehnat vazirligi tomonidan taqdim etilgan "Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risida"gi yillik hisobotda keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi to'g'risida"gi 3-sonli yig'ilish bayoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ichli ishlar bo'limi (A.Rayxanov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (I.Amonov), tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlariga: AQSH Mehnat vazirligi tomonidan e'lon qilingan "Bolalar mehnatining eng yomon shakllari" to'g'risidagi hisobotda O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilashga doir tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasin; har oyning 5 sanasiga qadar chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha tuman komissiyasi kiritib borsin.

3. Mazkur yig'ilish bayoni qarorining bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Bayonlashtirildi

F.Sa'dullayev

